<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushinishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарипа Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	



PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VALEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Sardorxon Quvondiqov

P.f.f.d.(PhD), professor,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar sharoitida oliy pedagogik ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasini muntazam oshirish, ularning ilmiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda pedagogik jarayon samaradorligini kuchaytirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda valeologik kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik mexanizmlari hamda ta'lim jarayonida uni rivojlantirishning metodik jihatlari ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, valeologiya, nazariya, metodika, talaba, kompetentlik, o'qituvchi, xulq-atvor, rivojlantirish, pedagogik mexanizm, pedagogika, takomillashtirish.

Abstract: This article examines the improvement of professional qualifications of academic staff working in higher pedagogical education institutions in the context of comprehensive reforms implemented in the education system. Particular attention is paid to expanding opportunities for scientific and creative activities of teachers and increasing the effectiveness of the educational process. The study also analyzes the theoretical foundations of developing valeological competence among future teachers, as well as pedagogical mechanisms and methodological approaches for its implementation and development in the educational process.

Key words: education, valeology, theory, methodology, student, competence, teacher, behavior, development, pedagogical mechanism, pedagogy, improvement.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения профессиональной квалификации профессорско-преподавательского состава высших педагогических образовательных учреждений в условиях проводимых в системе образования масштабных реформ. Особое внимание уделяется расширению возможностей для научно-творческой деятельности педагогов и повышению эффективности образовательного процесса. Также анализируются теоретические основы формирования valeологической компетентности будущих учителей, педагогические механизмы её развития и методические подходы к её внедрению в образовательный процесс.

Ключевые слова: образование, valeология, теория, методика, студент, компетентность, преподаватель, поведение, развитие, педагогический механизм, педагогика, совершенствование.

KIRISH

Oliy ta'limning modernizatsiyalashuvi bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga, shuningdek, tayyorlanayotgan pedagoglarning malakaviy saviyasiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning ortishiga sabab bo'ldi. Bo'lajak pedagoglarda valeologik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini yaratish va ularni takomillashtirish muammosini hal etishga qaratilgan ilmiy-metodologik, nazariy hamda uslubiy tadqiqotlar muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bunday keng qamrovli vazifalarni amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri ustoz-pedagoglar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni ularning talabalar bilan ijodiy, ilmiy va uslubiy faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir. Bu borada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish hamda ilm-fan sohasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur masalalar muhokama qilingan yig'ilishlardan birida: "O'zbekistonda adolat nuqtai nazaridan, iqtisodiyot nuqtai nazaridan, ma'naviyat nuqtai nazaridan va ma'rifat nuqtai nazaridan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan kuchli muallimlar va ziyolilar zarur", – degan fikrlar ham bu sohaning naqadar muhim ekanligini ifodalaydi.



Oliy o'quv yurtlarida o'quv-uslubiy jarayonning bosh maqsadi – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Ushbu vazifani samarali amalga oshirishda pedagog-ustozlar hamda professor-o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy tayyorgarligi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasining 23-sentabr 2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ–637-sonli Qonun¹ [2] oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashning metodologik va nazariy asoslarini yanada kengaytirdi. Mazkur qonun talablarining amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim tizimining takomillashuvi ta'minlanib, jahon andozalariga mos bakalavrlar tayyorlash tizimi rivojlantirildi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etildi, moddiy-texnik baza yangilandi hamda ta'limni modernizatsiyalash talablariga javob bera oladigan malakali pedagog kadrlar korpusi shakllantirildi. Shuningdek, malaka oshirish markazlari yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirib, tajriba va axborot almashinuvini yo'lga qo'ydi. Natijada pedagog kadrlarning xorijiy ta'lim markazlarida malaka oshirish imkoniyatlari kengaydi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar oliy pedagogik ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning o'z ustida muntazam ishlashi, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi hamda ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Oliy o'quv yurtlarida tashkil etilgan o'quv, ilmiy va axborot-resurs markazlari professor-o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etish, ta'lim jarayonidan ajralmagan holda malaka oshirish hamda o'quv, ilmiy va tarbiyaviy jarayonlarni xalqaro standartlar asosida olib borishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazlari faoliyatining takomillashuvi kafedra va fakultetlarda ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qildi. Ularning internet tarmog'iga ulanishi valeologik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning kengayishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, oliy pedagogik ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish hamda ta'limning turli bosqichlari, jumladan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot institutlari bilan amaliy aloqalari yanada kengaytirildi [14].

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida shaxs tarbiyasi, bo'lajak pedagogni murakkab ta'lim-tarbiya jarayoniga tayyorlash, ya'ni yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassis shaxsini shakllantirish hamda unda valeologik kompetentlikni rivojlantirish pedagogika fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonning murakkabligi pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, tajribasi hamda ilmiy salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida valeologik ta'limni rivojlantirish masalasi nafaqat falsafa, tarix, sotsiologiya, iqtisodiyot va huquqshunoslik kabi fanlar doirasida, balki pedagogika fanida ham alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning valeologik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va mohiyati keng yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda valeologik ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar doirasida bir qator pedagog olimlar muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, E.O. Turdiqulov, U. Turdiqulov, X. Norbo'tayev, Sh.M. Kamolxo'jayev va Sh. Yunusova kabi olimlar [84, 87, 71, 52, 108] o'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida valeologik ta'limni shakllantirish masalalarini tadqiq etganlar.

Shuningdek, R.X. Djuraev, A.S. To'xtayev, A. Ergashev, X. Tog'ayev, D. To'xliyev hamda T. Saporov [48, 94, 107, 82, 92, 77] o'z tadqiqotlarida ekologiya tushunchasi, uning mazmuni hamda atrof-muhit va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilganlar.

Talabalarda valeologik savodxonlikni rivojlantirish, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash hamda ma'naviy merosimizning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish masalalari esa M.M. Aliqulova, M. Allayarov, S. Mamashokirov va N. Hakimovlar [35, 33, 57, 116] tomonidan keng o'rganilgan.

Valeologik madaniyat tushunchasi hamda o'quvchilarda ushbu madaniyatni samarali shakllantirish masalalari bo'yicha V.N. Sattorov, N.O'. Nishonova, A.R. Malikova, N.Sh. Bozorova, N. Isakulova va I.X. Ayubovalar [78, 70, 56, 44, 49, 48] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda valeologik ta'limning iqtisodiy, tabiiy va ijtimoiy jihatlarini hamda uning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilingan.

O'zbekistonda pedagogika sohasida valeologik ta'limning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri E.O. Turdiqulov hisoblanadi. U tabiiy fanlar asosida o'quvchilarga valeologik ta'lim-tarbiya berish hamda uning uzluksizligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning ilmiy asarlarida "Ekologiya" hamda "Valeologik ta'lim va tarbiya" tushunchalariga keng ilmiy izohlar berilgan. Olim yosh avlod ongida tabiatga mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish hamda insoniyat hayotida tabiiy resurslarning muhim o'rni mavjudligini ilmiy asoslar orqali yoritib bergan.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007>.



Xorijiy olimlar tomonidan ham valeologik kompetentlikni rivojlantirish masalasi keng o'rganilgan. Jumladan, amerikalik olim J.U. Ogbu bolalarni oilaviy va mikroijtimoiy muhitda tarbiyalash jarayonida madaniyatlararo hamda guruhlararo taqqoslash asosida madaniy-valeologik kompetentlikni rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan.

Eindhoven texnologiya universiteti tadqiqotchisi N. Roszen esa valeologik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida axloqiy motivlarning yaxlit tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. U valeologik kompetentlik tushunchasini "valeologik xulq-atvorni shakllantirish jarayonida tabiat va atrof-muhitga oid bilimlar hamda ekologik xulq-atvor ko'nikmalariga ega bo'lish" sifatida izohlaydi [76].

Talabalarda valeologik kompetentlikni rivojlantirish masalasini tibbiy bilimlar bilan uyg'unlikda o'rgangan Latviyadagi Riga Stradins universiteti olimlari Ruta Renigere va Yeva Kela talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati atrof-muhitni muhofaza qilish bilan chambarchas bog'liq bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, talabalar tabiatni asrash, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda ekologik muammolarni anglashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni egallashlari muhim hisoblanadi. Shuningdek, olimlar atrof-muhitga oid axborotlarga qiziqishni oshirish orqali insonlarning ekologik mas'uliyatini rivojlantirish g'oyasini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Rossiyalik olimlar O. Perfilova va Yu. Alizade o'z ilmiy izlanishlarida bo'lajak mutaxassislarining valeologik kompetentligini rivojlantirish uchun ularni tabiiy hamda ijtimoiy faoliyat turlariga tayyorlash zarurligini asoslab berganlar [74; 186-b.]. V.A. Ley esa ta'lim talablari asosida talabalarda valeologik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. U valeologik vaziyatlarni baholash va xavf-xatarlarni kamaytirish jarayonida valeologik ong, dunyoqarash hamda fikrlashni rivojlantirish zarurligini ilgari suradi.

G.A. Paputkova universitet talabalari orasida valeologik kompetentlikni rivojlantirishni tabiat va jamiyatning barqaror rivojlanish evolyusiyasi bilan bog'liq holda tashkil etish usullarini ishlab chiqqan [73; 367-b.]. Olimaning fikricha, valeologik kompetentlik mutaxassisning kasbiy faoliyatida ijtimoiy va professional jihatdan tayyor bo'lishi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashi hamda faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyatini ifodalovchi muhim integrativ sifatdir. O.E. Perfilova esa talabalarda valeologik kompetentlikni rivojlantirishni ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, valeologik kompetentlik shaxsning qaror qabul qilishga tayyorligi, atrof-dagi voqelikni subyektiv idrok etishi hamda ijtimoiy va tabiiy-madaniy omillarni anglash bilan bog'liq murakkab pedagogik hodisani ifodalaydi [74; 186-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning valeologik kompetentligini rivojlantirish masalasi nazariy va analitik yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik hamda valeologik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazmunan o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari tizimlashtirildi.

Tahlil jarayonida valeologik kompetentlikning mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda pedagogik jarayondagi o'rni aniqlashtirildi. Natijada pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning valeologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda uni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim omillar ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar davomida turli soha olimlarining talabalarda valeologik kompetentlikni rivojlantirish muammo-siga yondashuvlari o'rganildi. Ushbu tahlillar natijasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning valeologik kompetentligini rivojlantirish masalasini chuqur va tizimli o'rganish zarurligi aniqlandi. Shuningdek, yoshlar tarbiyasi uchun mas'ul pedagoglarga ega bo'lgan jamiyat global va mintaqaviy valeologik xavfsizlikni ta'minlashga qodir bo'lgan fuqarolarni tarbiyalashi mumkinligi ta'kidlandi. Shu bois pedagogik ilmiy tadqiqotlarda ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirishga ehtiyoj mavjudligi qayd etildi.

Pedagogikaga doir ilmiy adabiyotlarda "valeologik tarbiya" tushunchasi bilan bir qatorda "valeologik kompetentlik" atamasi ham keng qo'llaniladi. Tadqiqotimizda aynan "valeologik kompetentlik" tushunchasidan foydalanildi va ushbu kategoriya mazmuni alohida tahlil qilindi. Ba'zi hollarda ekologiya mazkur tushunchaning sinonimi sifatida qo'llansa-da, ekologiya ushbu jarayonning asosiy maqsadini ifodalaydi va inson valeologik ongining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Ekologiya – yunoncha "oikos" – uy, makon va "logos" – fan, ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib [204; 304-b.], u tirik organizmlarning o'zaro hamda ularni o'rab turgan muhit bilan munosabatlarini, shuningdek, inson va biosfera o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganuvchi fan sifatida talqin etiladi [205; 25-b.].

"Valeologik" atamasi ekologiyaga oid yoki u bilan bog'liq ma'noni ifodalaydi, "kompetentlik" tushunchasi esa lotincha "competentia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "layoqatli bo'lish", "munosiblik", "qobiliyat" kabi

ma'nolarni anglatadi ^[165; 238-b.]. Mazkur tushuncha faoliyat jarayonida nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni bildiradi ^[206; 396-b.]. Shu o'rinda kasbiy kompetentlik tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga egaligi hamda ulardan amaliyotda samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.

Yuqoridagi tahlillarga asosanib, "valeologik kompetentlik" tushunchasiga quyidagi ta'rifni berish mumkin: bo'lajak pedagogning valeologik kompetentligi – bu o'qituvchining egallagan ekopedagogik bilimlari, ko'nikma va malakalari, e'tiqodi, motivlari, qadriyatli yo'nalishlari hamda valeologik ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri asosida ekopedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida "odam – jamiyat – tabiat – ma'rifat" tizimida ongli va mas'uliyatli faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifatidir.

Talabalarning valeologik kompetentligi zamondoshlarimizning ma'naviy va amaliy tajribasiga tayanadi. Shu bilan birga, u uchinchi ming yillikda atrof-muhitning valeologik holatida yuz berayotgan o'zgarishlar haqidagi ilmiy asoslangan qarashlarni ham o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi orqali olinayotgan ekologik bilimlar valeologik kompetentlikni rivojlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi hamda insonning tabiat bilan o'zaro aloqasini anglashda muhim o'rin tutadi. Natijada talabalarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni tushunish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik mas'uliyatni shakllantirish jarayoni izchil rivojlanadi. Shu jihatdan qaraganda, valeologik kompetentlik inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglashga asoslangan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning valeologik kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Valeologik kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni anglash hamda talabalarda ekologik madaniyat va sog'lom hayot tarziga oid qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagog kadrlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois pedagogik ta'lim muassasalarida valeologik ta'lim elementlarini o'quv dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Talabalarda ekologik madaniyat va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ham ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilarning valeologik kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus seminarlar, treninglar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish pedagogik tayyorgarlik samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "Adolat", 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ–637-son. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 21-aprel, 03/21/683/0375-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O'zbekiston Respublikasi "Valeologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni // "Xalq so'zi" gazetasi. – 2013-yil, № 255.
4. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – 2007-yil 3-yanvar, O'RQ–76-son. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 21-aprel, 03/21/683/0375-son. <https://www.lex.uz/uz/docs/-1101278>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabrda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–4760-son Farmoni. – lex.uz/docs/3121798
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5430-son Farmoni. – <https://www.lex.uz/docs/3721649>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF–4749-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-yil 11-dekabr, 06/19/5892/4134-son. <https://lex.uz/docs/-3107036>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5847-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 30-aprel, 06/20/5987/0521-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4545884>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF–5953-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 27-mart, 06/20/5975/0377-son. <https://lex.uz/docs/-4751561>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF–5106-son Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. – 2017-yil 6-iyul. <https://lex.uz/docs/-3255680>.



11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022-yil 29-yanvar, 06/22/60/0082-son; 2022-yil 18-mart, 06/22/89/0227-son; 2022-yil 21-aprel, 06/22/113/0330-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–4038-son Qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 28-sentyabr, 06/20/6075/1330-son. <https://lex.uz/docs/-4084926>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktyabrdagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–3956-son Qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 30-dekabr, 07/21/76/1231-son. <https://lex.uz/docs/-3930219>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–3775-son Qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 26-mart, 07/21/5040/0243-son. <https://lex.uz/docs/-3765586>.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4623-son Qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 13-iyun, 07/20/4749/0758-son. <https://lex.uz/docs/-4749364>.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–131-son Qarori. – <https://www.lex.uz/docs/5861879>.
17. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktyabrdagi "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 11-son buyrug'i. – <https://www.lex.uz/docs/5701176>.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi "Valeologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 14-son Qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2018-yil 23-noyabr, 09/18/949/2214-son. <https://lex.uz/uz/docs/-2325221>.
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagi "Istirohat bog'lari va yashil zonalarni tashkil etish metodologiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 671-son Qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 20-noyabr, 09/21/694/1075-son. <https://lex.uz/docs/-3871228>.
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida valeologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son Qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 21-may, 09/21/320/0482-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4354743>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.